



AMIRIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATINING TURKIYADA O'RGANILISHI

Abdurazzaqova Dilzodaxon Axadjon qizi,

UrDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

gmail: dabdullayeva@gmail.com

+998911429102

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2025-yil

Tasdiqlandi: 15-yanvar 2025-yil

Jurnal soni: 17

Maqola raqami: 7

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1350>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Amiriy, o'zbek, Qo'qon, turk, Aslan, Ertaylan, Tanch, Shen, muhit, devon, dunyogarash, badiiy ijod, musammat, matniy, g'azal, olim, maqola, badiiy, kirish, o'rganilish, adabiy, tadqiq, tuyuq

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qo'qon adabiy muhiti rahbari shoh va shoir Sayyid Muhammad Umarxon Amiriy hayoti va ijodining Turkiya Respublikasi olimlari tomonidan o'rganilishi, chop ettirilgan maqolalari, ilmiy izlanishlari tadqiq etilgan. Turk olimlarining ilmiy ishlarida aks etgan fikrlarga munosabat bildirishga harakat qilingan.

Tadqiqotda Amiriy shaxsiyati va adabiy merosiga oid turk olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqot ishlari, monografiyalar va maqolalar tizimli ravishda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Amiriy ijodining Turkiyada o'rganilish bosqichlari, asosiy yo'nalishlari va metodologik yondashuvlari aniqlanadi.

Maqolada turkiy adabiyotshunoslik doirasida Amiriy ijodiga bo'lgan ilmiy qiziqishning shakllanishi, uning asarlarining nashr etilishi, tarjima qilinishi va tahlil qilinishi jarayoni yoritiladi. Amiriy ijodining badiiy-estetik xususiyatlari, g'oyaviy mazmuni va mumtoz turkiy adabiyotdagi o'rni turk adabiyotshunoslari qarashlari asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari Amiriy merosining xalqaro miqyosda, xususan Turkiyada o'rganilishi o'zbek va turk adabiy aloqalarini mustahkamlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur maqola mumtoz adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik hamda turkiy xalqlar adabiy merosini o'rganish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kirish. Taniqli tanqidchi Vadud Mahmud ta'biri bilan aytganda, "Ilohiy tarannumlar sohibi", Fitrat "Adabiyot qoidalari"da zikr etib, ijodiga murojaat qilgan "san'at dunyosida mo'jiza ko'rsatib, ko'p bora to'fonlar qilgan qahramonlardan biri" sifatida qayd etgan Sayyid Muhammad Umarxon Amiriy hayoti, ijodi, faoliyati o'z davridan to hozirgi kungacha juda ko'plab ilm ahllarini o'ziga jalb qilib kelmoqda, asarlari tadqiqot obyekti sifatida turli nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Mamlakatimiz olimlari tomonidan yuksak maqomdagi shoh, betakror badiiyat namunalari shoiri Amiriy shaxsiyati, ijodiga yuqori baho berilib kelinmoqda. Turkiya olimlari ilmiy tadqiqotlarining salmoqli qismi Yusuf Amiriy va Umarxon Amiriy o'rtasidagi chalkashliklarga nuqta qo'yilganidan so'ng, Amiriy devonlarining o'rganilib chop ettirilishiga oid, xonlik davridagi Qo'qon va Turkiya adabiy aloqalari, elchilik munosabatidagi taqdim etilgan devonlar, Amiriy zamonida yaratilgan tarixiy asarlardagi Amiriy shaxsiyatining yoritilishi, devon nusxalari, ulardagi janriy tarkib va o'z yurtlarida o'rganilishiga diqqat qaratib, u yoki bu darajada tadqiq etishmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Amiriy ijodining Turkiyada o'rganilishi bo'yicha yurtimizda amiriyshunos olim Zebaxon Qobilova muallifligidagi "Studying Emiri devon in Turkey"¹ ("Amiriy devonining Turkiyada o'rganilishi") nomli bir maqola e'lon qilingan xolos. Mazkur maqolada shoh-shoir ijodi va devonlarining Turkiyada o'rganilishiga doir qimmatli fikrlar bildirib o'tilgan. Shuningdek, olim rahbarligi ostida "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha web-sayt va elektron platforma yaratish" nomli amaliy grand loyiha amalga oshirilib, loyiha doirasida Turkiya va Tojikiston Respublikalarida saqlanayotgan Amiriy devonlari nodir nusxalari o'rganilib, faksimile nusxalari yurtimizga keltirilib tadqiq etilgan.

Biz ushbu maqolada Turk olimlari Uzeyir Aslan, Mustafo Tanch, Huseyin Shen, Saidbek Boltaboyevlarning Amiriy hayoti, ijodi, devonlari bo'yicha yozgan maqolalarini o'rganishga harakat qildik.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Amiriy hayoti va ijodiy faoliyatining Turkiyada o'rganilishi masalasi kompleks ilmiy-metodologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy va tarixiy-adabiy yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tarixiylik va izchillik tamoyillari, qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali Amiriy ijodining O'zbekiston va

Turkiya adabiyotshunosligida o'rganilishidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Shuningdek, bibliografik tahlil metodi yordamida Amiriyga oid ilmiy tadqiqotlarning Turkiyada shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari belgilab olindi.

Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida filologik tahlil, matnshunoslik va manbashunoslik metodlari qo'llanildi. Amiriy asarlarining Turkiyada chop etilgan nashrlari va tarjimalari lingvistik hamda adabiy-estetik jihatdan o'rganildi. Tadqiqot natijalari tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarishda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv Amiriy ijodining Turkiya ilmiy muhitida o'rganilish holatini obyektiv va ilmiy asosda yoritishga imkon berdi.

Natijalar. Uzeyir Aslan "Shoh shoir Amiriyning musammatlari"² nomli maqolasida Amiriy shaxsiyati haqida biroz to'xtalib, Turkiyada o'rganilishiga diqqat qaratadi. Maqola annotatsiyasida Turkiyaning Istanbul kutubxonasida 2850 va 5452 raqamli ikki qo'lyozma topilgani, mazkur qo'lyozmalar XV asrda yashab ijod etgan Yusuf Amiriyga nisbat berib kelingani, ammo qo'lyozmadagi asarlar (Fuzuliy va Nobiyga taxmislar) ushbu qo'lyozmaning XVI-XVII asrda yashagan ijodkorga oid bo'lishi kerakli, bu shaxs "Amiriy" va "Amir" taxalluslari bilan ijod qilgan Turkiston xonlaridan Qo'qon xoni Umarxonga taalluqli ekanligi keltiriladi.

Maqolaning kirish bo'limi ikki qismdan iborat. Birinchi qismda muallif Amiriy hayoti va ijodi, tashkil etgan ijodiy davrasi, homiyligida yuzaga kelgan "Majmuat ush-shuaro" asari, shoirning tartib berilgan devoni mavjudligini keltiradi. Muallif ikkinchi qismda Amiriy devoniga diqqatni qaratadi. Amiriy devonining Respublikamiz Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutida 17 qo'lyozma nusxasi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida 26 qo'lyozma nusxasi saqlanayotgani, devon 1888-1910-yillar orasida Toshkentda 6marta, Istanbulda 1884-yil hamda 1898-yilda 2marta nashr ettirilganligi, Turkiya kutubxonalarda saqlanayotgan Amiriy devonining qo'lyozma nusxalarining turk olimlari tomonidan o'rganilishi, Mustafo Tanch, Koja Savash, Ko'kteginlar tomonidan shoir devoni nashrga tayyorlanganligi qayd etiladi. 2024-yil Qo'qon davlat pedagogika instituti magistranti Sug'diyona Ergasheva "Devoni Amiriy" va "Majmuayi shoiron"dagi Amiriy she'rlarining matniy-qiyosiy tahlili mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobida saqlanayotgan Amiriy devonlarining qo'lyozma nusxalarini

¹ <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3112>

² Uzeyir Aslan. Han Shair Emiri'nin Musammatlari. // Modern Türklük Araştırmaları Dergisi // - 2011, Sayı 1.

solishtiradi, matniy-qiyosiy jihatdan o'z fikrlarini bayon etadi. Uzeyir Aslan Sayyid Muhammad Umarxon va Yusuf Amiriy o'rtasidagi xatoliklar A.N.Samoylovichning 1926-yilgi tadqiqotidan boshlanib, keyinchalik turk va o'zbek tarixchilari tomonidan yangilash davom etganini ta'kidlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 1926-yil nashr etilgan Sadridin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik"³, 1925-yil chop etilgan Vadud Mahmudning "Bu kungi she'r-larimiz va san'atkorlarimiz"⁴ nomli maqolasida Umarxon Amiriy shaxsiyati va ijodiga alohida to'xtalangan edi. Olim maqola asosiy qismida, Amiriy Navoiyning yigirma to'rt, Lutfiyning to'rt, Zaliliyning uch, Fuzuliyning ikki, Nobiyning bir g'azaliga taxmis bog'lagani aytiladi va taxmis bog'langan g'azallar har birining matla'sini keltirib o'tadi. Maqola xulosa qismida yuqorida aytilgan fikrlar umumiy tarzda xulosalanadi.

"Turk dunyosi til va adabiyot jurnali"ning 2003-yil 15-sonida professor Mustafa Tanchning "So'nggi davr Chig'atoy turkchasi va Umarxon"⁵ mavzusida yozgan maqolasi e'lon qilingan. Maqola dastavval, Chig'atoy turkchasining so'nggi davriga umumiy bir qarash tarzida boshlangan. Umarxon haqidagi fikrlar bir butunlikda navbatma-navbat bayon qilingan. Olim Umarxonning tarixchilar tomonidan diindor va odil hukmdor sifatida qayd etilishi, adabiyotni juda sevishi, ayni paytda o'zi ham shoir sifatida she'r yozib ijodkorlarni saroy atrofiga jamlab, ularga homiylik qilganini aytadi. So'ngra, Amiriyning siyosiy faoliyatiga, xususan, Usmonli davlati bilan o'rnatilgan siyosiy aloqalariga urg'u beriladi. Shoh va shoirning siyosati xalqi tarafidan e'tirof etilishi, hatto "amir ul-mo'minin" nomi bilan atalishi, biroq uzoq hukmdorlik qilmagani, hastalik tufayli vafot etishi keltiriladi. Maqola navbatida Usmonli davlati bilan faqatgina siyosiy emas, balki, ilmiy va adabiy munosabatlarga ham kirishilgani ko'rsatiladi. Istanbulning Yulduz Kutubxonasida saqlanayotgan Chig'atoy adabiyotiga doir nodir qo'lyozmalar Umarxon hamda Xiva xoni tarafidan yuborilganligi alohida ta'kidlangan. Shundan so'ngra, Umarxon she'r-lariga "Amir" taxallusini qo'llagan, Navoiy uslubida ijod qilgani, Umarxon davri Husayn Boyqaro davri bilan muqoyasaga kirishgani, saroyda yetmishdan ziyod shoir yashagani, bular orasida Namanganlik Fazli, Gulxaniy, Hozir, Maxmurlar borligi, shuningdek, saroyda alohida hodisa sifatida Mahzuna, Uvaysiy, Nodira kabi ayol shoirlar ham ijod qilgani keltirilib, Nodira ijodiga alohida to'xtalindi, Amiriy va Nodira farzandi Muhammad Alixon qisqa ta'riflanib, adabiyotga qiziqqani, she'r-lar yozgani, "Layli va Majnun" masnaviysini tugallab ulgurmagani aytiladi. So'ngra, maqolaning asosiy qismi: Amiriy devonlari qo'lyozmalariga diqqat qaratiladi. Umarxonning turkiy va forsiy she'r-larini ichiga olgan devonida g'azallar, muxammaslar, musaddas va musammanlar, 24 tuyuq va bir tarjiband borligi, devon kirish qismi (debocha) avtobiografik xarakterdaligi, Turkiya kutubxonalardan Istanbul Universiteti Kutubxonasida N5452 va N2850 raqamli qo'lyozmalar saqlanayotgani haqida ma'lumot beriladi. Olim maqolada Yusuf Amiriy va Umarxon Amiriy ijodi va qo'lyozmalarining qorishtirilishi turkolog Samoylovich nomi bilan bog'liqligini, mazkur yangilash Ismail Hikmat Ertaylon tomonidan tuzatilganligini qayd etadi. Olim Amiriyning turkiy olimlardan Fuzuliy va Nobiy-larga taqlid etib, taxmis bog'laganini aytib, qo'lyozmadan o'rin olgan Fuzuliyning "o'landan so'r", Nobiyning "qildi" radifli g'azaliga bog'lagan ikki taxmis matnini keltirib maqolaga yakun yasaydi.

"Umumi turk tarixi tadqiqotlari jurnali"ning 2021-yil sonida Husayn Shennig "Umarxon davri Qo'qon xonligi (1809-1822)"⁶ sarlavhali maqolasi nashr etilgan. Mazkur maqolada Qo'qon xonligini 13 yil boshqargan Umarxonning tug'ilishi, yoshlik davridagi, xususan madrasada olgan ta'limi, sekin-asta harbiy harakatlarga jalb etila boshlanib, hokim bo'lgani, Nodiraga uylangani, Muhammad Ali va Sulton Mahmudxon ismli ikki farzand ko'rgani, siyosiy va adabiy faoliyati annotatsiyada yoritilib, kirish qismida Qo'qon xonligi tarixini 3davrga (tashkil etilish davri, rivojlanish davri va tanazzul davri) bo'lib o'rganishni aytadi. Har uch davrga xos o'ziga xosliklarga e'tibor qaratib, Umarxon hukmronlik yillarini rivojlanish davriga kiritadi. Maqola "Umarxonning bolaligi va shahzodaligi", "Umarxonning taxtga chiqishi", "Umarxonning siyosati va harbiy faoliyati", "Umarxonning

diplomatik faoliyatlari", "Umarxonning ma'muriy islohotlari va o'limi", "Umarxonning adabiy shaxsiyati va qurilish faoliyati" bo'limlari va xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar qismidan iborat.

Maqolada muallifning ko'plab manbalar bilan ish ko'rgani bilib turibdi. Lekin, maqola nashr etilgan yilga hisoblasak, yurtimizdagi mavjud birlamchi ilmiy manbalar va tadqiqotlar bilan tanishmaganligiga guvoh bo'lamiz. Muallif maqolaning "Umarxonning bolaligi va shahzodaligi" qismida Amiriyning tug'ilgan yiliga e'tibor berib, Avaz Muhammad Attor ishida 1785-yil, Umarxon devonining o'zida 1787-yil berilganini ta'kidlab, 2016-yilgi Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi Izzatillo Omonovning "nashr etilmagan magistrlik ishi" ("Umarxon hukmdorligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvoli")dan havola keltirish bilan cheklanadi. Umarxonning onasi haqida fikr bildirib, "Mingoyim deb ham tanilgan Zuhraoyim edi"⁷ deb fikr bildiriladi, lekin olingan manba ko'rsatilmaydi. Shuningdek, maqolaning "Umarxonning taxtga chiqishi" qismida asosiy manba sifatida Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorih" asaridan foydalanadi. Fikrlarini ham shu asar negizida bir yoqlama bildiradi. Hakimxon To'raning "Muntahab ut-tavorih" asarida Amiriy faoliyatiga bergan bahosi uning shaxsiy munosabatlari bilan bog'liqligi, bundan tashqari, shoh va shoir hayoti va ijodiga bo'lgan biryoqlama munosabatlar Zeboxon Qobilova ilmiy ishlari qatorida turli maqolalarida ham o'z aksini topgan.⁸ Bizningcha, maqola muallifi Huseyin Shen "Muntahab ut-tavorih" asarini tadqiq etgani barobarida ko'plab ilmiy qarashlari mazkur asarga monand. Bunga olimning "Muntahab ut-tavorih va uning XIX asr Turkiston tarixidagi ahamiyati"⁹ nomli maqolasini misol qilib keltirish mumkin. Huseyin Shenga ko'ra, Olimxon hali o'ldirilmasidan Jumaboy Kaytakiy, Irisqulbiy parvonachi va Rahmonqul Dodhoh shahzoda Umarxon bilan birgalikda kengash tuzib, Olimxonga qarshi to'ntarish uyushtirishga qaror qilishdi, Umarxonni Qo'qonga olib kelib, xon deb e'lon qilishdi. Ana endi berilgan havolaga e'tibor bersak, "Dincher Koch"dan manba keltirilib, unda Olimxonni o'z tog'asi, Umarxonning qaynotasi Rahmonqulbiy o'ldirganligi keltirilgan. Axir, olim manbalar bilan ishlab turganda ayni shu xalq yoki davrga oid o'sha millatning tarix kitoblariga murojaat qilmaydimi, nahot buni olim e'tiborga olmagani bo'lsa? To'g'ri, har kimning o'z haqiqati bor, lekin "dunyo ilmida yozilmagan bir qoida bor: sen mavzuiga bo'yicha o'zingdan oldin yozilgan va chop etilgan barcha ishlardan, ular qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar, xabardor bo'lishing kerak"¹⁰. Maqolaning "Umarxonning adabiy shaxsiyati va qurilish faoliyati" qismida adabiy manbalar bilan bir muncha ishlangan, lekin, shoh-shoirning adabiy faoliyati yetarlicha ochilmay, umumiy qarash bilan kifoyalanilgan hamda amalga oshirgan me'moriy faoliyatiga atroflicha diqqat qaratilgan.

Turkiya Respublikasining Karabuk Universiteti Adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti bo'limida faoliyat yurituvchi filologiya fanlari doktori, professor asli andijonlik hamyurtimiz Saidbek Boltaboyevning 2021-yil "Turk madaniyati va Hoji Bektosh Valiy tadqiqot jurnali" 98-sonida "Amir Umarxonning Sulton Mahmud II ga yuborgan "Muhabbatnoma" majmuasi haqida"¹¹ nomli maqolasi nashr etilgan. Ushbu maqolada Amir Umarxonning shaxsiyati qurgan madrasalari, masjidilari, suv kanallari, muvaffaqiyatli ichki va tashqi siyosiy faoliyati, tashkil etgan adabiy muhiti hamda san'at, fan, adabiyot va ilm ahllariga bergan ahamiyati bilan ajralib turadigan shoir-hukmdorlardan biri ekanligi ochib berilgan. So'ngra maqola mavzusi bo'lgan "Muhabbatnoma" majmuasi matniy-qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Mazkur majmua Sulton Mahmud II ga Amir Umarxon tomonidan elchilar orqali sovg'a tariqasida yuborilgani, avval Yulduz saroyi kutubxonasida, hozirda Istanbul Universitetining noyob qo'lyozmalar kutubxonasi muzeyida TY5452 raqami bilan "Najotnoma" ("Necit-name") nomi bilan ro'yxatga olingani, unda to'rt shoirning yetti devoni o'rin olgani (Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oniyy" kulliyoti: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoye ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" devonlari, Amir Umarxon devoni, Lutfiy devoni, Fuzuliy devoni) ta'kidlangan. Shuningdek, devonlar so'zboshilari bilan birga ko'rib

³ Sadridin Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. – Dushanbe: Adib, 2010.

⁴ <https://n.ziyouz.com/portals/haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/vadud-mahmud-bu-kungi-she-r-larimiz-va-san-atkorlarimiz-1925>

⁵ Mustafa Tanç. Son dönem Çağatay Türkçesi ve Ömer Han. // Türk dünyası Dil ve edebiyat dergisi // - 2003, Sayı 15.

⁶ Hüseyn Şen. Ömer Han dönemi Hokand hanlığı (1809-1822). // Genel Türk tarihi araştırmaları dergisi // -2021, Sayı5.

⁷ O'sha manba 3-bet

⁸ Qobilova Z. Oltin beshikda ulg'aygan siymo. // Tafakkur jurnali // - 2021, 3-son. 90-97-betlar.

⁹ Hüseyn Şen. Muntahab at-tevarih ve 19. Yüzyıl Türkistan tarihi açısından önemi. // Türk dünyası araştırmaları // -2018, Sayı 237.

¹⁰ <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-va-bugungi-avlod-navoiyshunos-olim-aftondill-erkinov-bilan-suhbat.html>

¹¹ Boltabayev S. Emir Ömer Han'ın Sultan II. Mahmud'a gönderdiği Muhabbetname mecmuası hakkında. // Türk kültürü ve Hacı Bektaş Veli araştırma dergisi // -2021, Sayı 98.

chiqilib, so'zboshilarning boshqa qo'lyozmalardan farq qiluvchi jihatlari, devonlarda uchraydigan she'rlarning turlari va soni aniqlanadi, turk nashrlariga kiritilmagan she'rlarning transkripsiyalari maqola so'nggida keltirilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan xulosalanadi. Maqolada Amiriy devoni debochasiga diqqat qaratilganda, mazkur debocha turkiyalik navoiyshunos Levend Ogoh Sirri tomonidan Husayn Boyqaro devoni debochasi sifatida talqin etilgani, lekin mazkur debocha Amiriyga oidligini keltiradi. O'rganishimiz davomida mazkur Amiriy tomonidan ko'chirilib, Sulton Mahmud II ga hadya sifatida yuborilgan ushbu majmua Saidbek Boltaboyevdan oldin ko'plab olimlar tomonidan, jumladan o'zbek adabiyotshunoslari Miyon Buzruk Solihov, Azizxon Qayumov, Hamidulla Boltaboyev, Aftondil Erkinov, Otabek Jo'raboyev; jahon adabiyotshunolaridan yuqorida qayd etganlarimiz Samoylovich, Hikmat Ertaylon va Ogoh Sirri Levendlar tomonidan tadqiq etilganini ko'rishimiz mumkin.

Muhokama. Mazkur tadqiqot davomida Turkiya Respublikasi olimlarining Amiriy hayoti va ijodiga oid qarashlari tahlil qilinadi, ularning ilmiy yondashuvlarida umumiylik bilan bir qatorda ayrim metodologik va manbashunoslikka doir tafvutlar mavjudligi ayon bo'ldi. Turk olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar, avvalo, Amiriy shaxsiyati atrofida yuzaga kelgan Yusuf Amiriy bilan bog'liq chalkashliklarga aniqlik kiritish, devon qo'lyozmalarini aniqlash va nashrga tayyorlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan Uzeyir Aslan va Mustafo Tanch tadqiqotlari muhim ilmiy xulosalari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda, xususan, Huseyin Shen maqolasida birlamchi o'zbek manbalariga yetarli darajada tayanilmaganligi, ayrim tarixiy voqealarning bir yoqlama talqin qilingani kuzatiladi. Bu holat Amiriy shaxsiyati va faoliyatini to'laqonli yoritishda muayyan cheklanishlarni keltirib chiqaradi. Ilmiy xolislik nuqtai nazaridan,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sadriddin Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. – Dushanbe: Adib, 2010.
2. Qobilova Z. Amiriy va uning adabiy faoliyati: Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 2007
3. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik masalalari (Amiriy she'riyati misolida). Filol.fan.d-ri. (DSc) diss... – Toshkent, 2021.
4. Qobilova Z. Oltin beshikda ulg'aygan siymo. // Tafakkur jurnali // - 2021, 3-son. 90-97-betlar.
5. Uzeyir Aslan. Han Shair Emiri'nin Musammatlari. // Modern Turkluk Araştırmaları Dergisi // - 2011, Sayı 1.
6. Mustafa Tanç. Son dönem Çağatay Türkçesi ve Ömer Han. // Türk dünyası Dil ve edebiyat dergisi // - 2003, Sayı 15.
7. Hüseyin Şen. Ömer Han dönemi Hokand hanlığı (1809-1822). // Genel Türk tarihi araştırmaları dergisi // -2021, Sayı5.

mahalliy tarixiy va adabiy manbalar bilan kompleks ishlash zarurati yanada dolzarblashadi. Saidbek Boltaboyev tadqiqoti esa mazmunan yaxlitligi, matniy-qiyosiy tahlilning puxtaligi va qo'lyozma manbalar bilan ishlash madaniyati bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Amiriy tomonidan Sulton Mahmud II ga yuborilgan "Muhabbatnoma" majmuasining manbashunoslik ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan bo'lib, bu Turkiya va Qo'qon xonligi o'rtasidagi adabiy aloqalarning yorqin dalili sifatida baholanadi. Umuman olganda, Turkiya olimlari tadqiqotlarida Amiriy shaxsiyati ko'proq siyosiy-tarixiy, matniy kontekstda yoritilgan bo'lsa, uning badiiy ijodi, poetik mahorati va adabiy jarayondagi o'rni ayrim hollarda umumiy baholar bilan cheklanib qolganini ko'rish mumkin. Bu esa Amiriy ijodini yanada chuqurroq, matniy va poetik tahlillar asosida o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Sayyid Muhammad Umarxon Amiriy hayoti va ijodining Turkiya Respublikasida o'rganilishi masalasi turkologiya va adabiyotshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri ekanligi mazkur tadqiqotda o'z tasdig'ini topdi. Turk olimlarining ilmiy izlanishlari Amiriy devonlari qo'lyozmalarini aniqlash, tarixiy-adabiy aloqalarni yoritish hamda shoir shaxsiyati bilan bog'liq ayrim munozarali masalalarga aniqlik kiritishda salmoqli hissa qo'shgan. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda mahalliy manbalarga yetarli darajada murojaat qilinmaganligi va birlamchi tarixiy-adabiy manbalarining e'tibordan chetda qolishi ilmiy xulosalarning to'liqligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu holat Amiriy hayoti va ijodini o'rganishda kompleks va qiyosiy yondashuv muhimligini yana bir bor ko'rsatadi. Zero, Amiriy o'ziga xos ifoda tarzi va uslubini yaratib, o'zbek mumtoz she'riyatida o'z so'zini ayta olgan va betakror ijodi bilan adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallagan shoir hisoblanadi.

8. Hüseyin Şen. Muntahab at-tevarih ve 19. Yüzyıl Türkistan tarihi açısından önemi. // Türk dünyası araştırmaları // -2018, Sayı 237.
9. Boltaboyev S. Emir Ömer Han'ın Sultan II. Mahmud gönderdiği Muhabbetname mecmuası hakkında. // Türk kültürü ve Hacı Bektaş Veli araştırma dergisi // -2021, Sayı 98.
10. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giiri/article/view/3112>
11. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/vadud-mahmud-bu-kungi-she-rlarimiz-va-san-atkorlarimiz-1925>
12. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-va-bugungi-avlod-navoiyshunos-olim-aftondil-erkinov-bilan-suhbat.html>